



## TILSHUNOSLIK FANI HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR

**Choriyeva Shodiyona Bayramali qizi**  
*O'zbekiston Davlat jahon tillari  
universiteti Xorijiy va adabiyoti fakulteti  
1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Siz bu maqolani o'qish davomida har bir fanning negizi bo'lgan tilshunoslik fanining tarixi, asosiy tarmoqlari, qanday ilmiy ishlar amalga oshirilgan, boshqa fanlar bilan qanday bog'liq tomonlari mavjudligini, ushbu sohadagi asosiy muammolar va ularga yechimlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

**Kalit so'zlar:** *tilshunoslik, amaliy tilshunoslik, grammatika, morfologiya, etnografiya, psixologiya, sinergetika, lingvistika.*

Hayotimizni so'zlashuvsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki insonlarning asosiy aloqa vositasi bu tildir. Til tilshunoslik fanining eng muhim tushuncha hisoblanadi. Ushbu fan aslida bizga nega kerak va bu soha nimani o'rgatadi? Aslida tilshunoslik fani asosan har bir xalqning milliy tilini o'rganuvchi fan bo'lib, bu fan asosan amaliy va umumiy tilshunoslik kabilarga bo'linadi.

Tilshunoslik yoki Lingvistika tillarni o'rganuvchi fandır. Tilshunoslikning amaliy va nazariy turlari mavjud bo'lib, nazariy tilshunoslik tilning strukturasi (grammatikasi) va uning ma'nosi (semantikasini) o'rganadi. Grammatika — morfologiya (so'zlarning tuzilishi va o'zgarishi), sintaksis (so'zlarning iboralarga va gaplarga biriktrilish qoidalari) va fonologiya (tilni abstrakt tovushlar yordamida o'rganish) fanlarini qamrab oladi. Amaliy tilshunoslik, asosan, tilshunoslikda o'rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan shug'ullanadi. Amaliy tilshunoslik tarkibiga xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish kiradi.

Tilshunoslik, „Lingvistika“ — til haqidagi, uning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan tillarning amal qilish (faoliyat) qonunlari, tarixiy taraqqiyoti haqidagi fandır. Maqsadi va vazifasiga ko'ra, tilshunoslikning bir nechta yo'nalishlari (sohalari) bor: umumiy tilshunoslik — tilni umuman insonga xos hodisa sifatida o'rganuvchi, asosiy vazifasi dunyo tillariga xos eng umumiy belgi-xususiyatlarni aniqlash va yoritish bo'lgan soha; xususiy tilshunoslik — ayrim bir til belgi-xususiyatlarini o'rganuvchi soha; amaliy tilshunoslik — tildan foydalanish bilan aloqador amaliy masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliteratsiya va boshqalar) hal qilish metodlarini ishlab chiquvchi yo'nalish; matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslikni o'rganadi.

Aslida tilshunoslik fani barcha sohalar bilan chambarchas bog'liqdir. Quyidagi sohalarda bu to'g'risida mulohaza qilamiz. Tilshunoslik fanini rivojlanishi



uchun aslida ushbu milliy tilda ilmiy ishlar tayyorlash, loyihalar qilish kerak. Til yuqori o'ringa chiqishi uchun doim uni mustahkamlash lozim. Chunki nega ayrim tillar juda mashhur, aynan o'sha tilda gazeta jurnal tahririyati juda kuchli rivojlangan. Kitoblar juda ko'p nashr qilinadi. Bu ajoyib natija. Biz ushbu soha rivojlanishi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

1. Tilshunoslik birinchi navbatda falsafa bilan chambarchas bog'liqdir, chunki falsafa tilshunoslikning metodologiyasini belgilab beradi. Masalan, dialektika, sinergetika, til va tafakkur haqidagi talimot tilshunoslikning metodologik asoslarini tashkil etadi.

2. Tilshunoslik psixologiya bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tilshunoslik bilan psixologiya o'rtasida mavjud bo'lgan muammolar psixolingvistikada o'rganiladi.

3. Tilshunoslik tarix bilan ham o'zaro bog'liq, chunki tilning lug'at tarkibi, uning ish ko'rish doirasi va xarakteri jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadadir.

4. Tilshunoslik etnografiya bilan ham bog'liq. etnografiya xalqlarning kelib chiqishi, tarkibi, urf-odatlarini, moddiy, manaviy va ijtimoiy madaniyatini o'rganadi. Tilshunoslik fani u yoki bu tilni o'rganishda xalq etnografiyasi materiallaridan foydalanib ish ko'radi.

5. Tilshunoslik tafakkur qonunlari va fikrlash shakllari haqidagi fan bo'lgan mantiq bilan ham bog'liq.

6. Ma'lumki, ijtimoiy tuzumga aloqador, hayot bilan va kishilarning jamiyatdagi munosabatlari bilan bog'langan; ijtimoiy jamiyatning sinflarga bo'linishi, ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini o'zgartirish bilan bog'liq qonunlarni sotsiologiya fani o'rganadi. Bu fan tilshunoslik bilan uzviy bog'liq holda taraqqiy etadi.

7. Qadimiy moddiy madaniyat yodgorliklari asosida kishilik jamiyatining o'tmishini o'rganuvchi fan – arxeologiya ham tilshunoslik bilan bog'liqdir.

8. Tilshunoslik adabiyotshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Ularning aloqasi, stilistika, adabiy til tarixi, badiiy adabiyot muammolarini o'rganishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

9. Garchi tilshunoslik fani ijtimoiy fan bo'lsada, fizika, kibernetika, matematika, fiziologiya kabi tabiiy fanlar bilan ham bog'liq holda rivojlanadi.

Yuqoridagi fikrlardan tasdiqlab o'tilganidek har bir soha bir- biriga yelkadosh

«Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir» (F.de Soseyur). «Til – odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakatidir» (L.Blumfil'd). «Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir» (B.Grosse).



Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurningifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqalinamoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tilibu — millatning ruhidir.

Nihoyat, 1989-yilning 19-oktabr kuni bu o'ta muhimmasala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tilidavlat tili deb e'lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi vahimoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagibuyuk voqea edi.

Ushbu yuqorida ko'rsatilib o'tilgan ma'lumotlardan xulosa chiqarish mumkinki, aslida tilshunoslik fani hayotimiz uchun va butun taraqqiyot uchun ham muhim hisoblanib, xalqlar o'rtasida bo'layotgan xalqaro va siyosiy huquqlar uchun ham asosiy ko'pri deb aytish joiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tilshunoslik>
2. "Amaliy tilshunoslik" fani bo'yicha ma'ruzalar matni Ingliz tili 1-fakultetining 2023-yil 26-avgustdagi fakultet Kengashida
3. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Islom Abdug'aniyevich Karimov.